



IBN XALDUN FALSAFASIDA ASABIYYA NAZARIYASI VA UNING IJTIMOIIY-FALSAFIY TALQINI

Ochilov Baxtiyor Shuhrat o'g'li

**Navoiy inovatsiyalar univeristeti “
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi” o‘qituvchisi
+99893 305 62 27**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ibn Xaldunning tarixiy metodologiyasi va uning “umron” nazariyasining shakllanishi falsafiy va tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ayniqsa, tarixiy xabarlarining ishonchliligini tekshirish mezonlari hamda ularning ijtimoiy va madaniy sharoitlarga mos kelishi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda Ibn Xaldun yondashuvi tarixshunoslikni subyektiv rivoyatlardan chiqarib, uni jamiyat qonuniyatlariga asoslangan ob'ektiv fan darajasiga ko'targani ta'kidlanadi. Xulosa qismida esa Ibn Xaldun g'oyalari Sharq tafakkuri va G'arb tarix falsafasi o'rtasidagi nazariy ko'prik sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Ibn Xaldun, asabiyya, jamiyat, birdamlik, davlat, sotsiologiya, falsafa, globallashuv, mintaqaviy integratsiya.

ТЕОРИЯ АСАБИЙИ В ФИЛОСОФИИ ИБН ХАЛДУНА И ЕЁ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация: В данной статье рассматривается историческая методология Ибн Халдуна и формирование его теории «умран» с философской и исторической точек зрения. Особое внимание уделяется критериям проверки достоверности исторических сообщений и их соответствии социальным и культурным условиям. Подчеркивается, что подход мыслителя вывел историографию за пределы субъективных



рассказов, превратив её в объективную науку, основанную на закономерностях общества. В заключение показано значение идей Ибн Халдуна как теоретического моста между восточной мыслью и западной философией истории.

Ключевые слова: Ибн Халдун, асабия, общество, солидарность, государство, социология, философия, глобализация, региональная интеграция

THE THEORY OF ASABIYYA IN IBN KHALDUN'S PHILOSOPHY AND ITS SOCIO-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION

Abstract: This article examines Ibn Khaldun's historical methodology and the formation of his "umran" theory from both philosophical and historical perspectives. Special emphasis is placed on the criteria for verifying the reliability of historical reports and their consistency with social and cultural contexts. The study highlights how Ibn Khaldun's approach elevated historiography beyond subjective narratives, transforming it into an objective science grounded in social laws. Finally, his ideas are evaluated as a theoretical bridge between Eastern thought and Western philosophy of history.

Keywords: Ibn Khaldun, asabiyya, society, solidarity, state, sociology, philosophy, globalization, regional integration.

Tarixiy voqealarni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilish jarayonida eng muhim masalalardan biri — xabarlarining ishonchliligi va ularning ijtimoiy haqiqatga muvofiqligini aniqlashdir. Mazkur yondashuv tarix falsafasi, metodologiyasi va ijtimoiy tafakkurda yangicha bosqichni boshlab berdi. Ibn Xaldun ushbu jarayonni "umron" tushunchasi orqali nazariy asosga qo'ydi va



tarixni ob'ektiv qonuniyatlarga tayangan ilmiy fan sifatida shakllantirdi. Shu bois uning qarashlari nafaqat o'z davri, balki keyingi ilmiy an'analar uchun ham muhim epistemologik ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy voqealar haqidagi ma'lumotlarning haqiqat va ishonchliligini belgilashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan eng muhim talab shundan iboratki, ular mavjud bo'lgan umumiy sharoitlarga muvofiq kelishi kerak(1). Bu tamoyil tarix falsafasi va metodologiyasining poydevorini tashkil etadi. Chunki tarixiy xabarlarni tekshirishda faqat rivoyatchilarning shaxsiy halolligi emas, balki ularning xabarlari tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitga mos keladimi yoki yo'qmi – ana shu jihat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Ibn Xaldun “umron” nazariyasini yaratish orqali tarixiy ma'lumotlarni tekshirishning universal mezonini belgilab berdi. Bu yondashuvni zamonaviy tarixshunoslikda qo'llaniladigan kontekstual tahlil metodi bilan asoslash mumkin.

Mutafakkir, har qanday xabar qilingan voqea yoki hodisaning aslida sodir bo'lishi mumkin yoki mumkin emasligini tekshirish zarurligini ta'kitlaydi(2). Bu esa shaxsiy rivoyatchilarni tanqid qilishdan ko'ra muhimroq va ustunroqdir. Chunki shaxsiy manbalarni tekshirish faqat “kim aytdi?” savoliga javob beradi, lekin “nima bo'ldi?” degan asosiy savolga javob topish uchun ijtimoiy sharoitlarni ham hisobga olish lozim. Ibn Xaldun bu bilan tarixiy bilimni subyektiv rivoyatlar darajasidan olib chiqib, uni ijtimoiy qonuniyatlarga tayangan ob'ektiv fanga aylantira oldi. Bundan ko'rinadiki, tarixiy xabarlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlashda normativ mezon shundan iborat bo'ladiki, ular insonlarning ijtimoiy tashkiloti, ya'ni umron va madaniyat qonuniyatlari bilan uyg'un yoki zid keladimi — ana shu jihat tekshiriladi(3). Bu metodologiya zamonaviy tarixiy-sotsiologik tadqiqotlarda ham dolzarbdir. Chunki har qanday voqea o'z zamonasi va muhitidan uzilib tushunilmaydi; u ijtimoiy, siyosiy va madaniy strukturalar bilan bog'liq holda



talqin etilishi lozim. Ushbu jarayonda biz sivilizatsiya mohiyatidan ajralmas bo'lgan zaruriy shart-sharoitlarni, tasodifiy va doimiy bo'lmagan omillarni hamda sivilizatsiya tabiatiga hech qachon mos kelmaydigan narsalarni farqlashimiz kerak(4). Ibn Xaldun bu jihatdan hozirgi strukturaviy-funksionalizmga yaqin turadi: u jamiyatni tashkil etuvchi asosiy institutlarni – hokimiyat, iqtisod, din, hunar, ilm – tarixiy voqealarning haqiqatini tekshirish mezonlari sifatida belgilaydi. Shunday yo'l bilan bizda tarixiy xabarlarini haqqoniylik yoki yolg'onlik mezonlari asosida baholashning mantiqiy usuli yuzaga keladi. Bu esa tarixchilar uchun ishonchli mezon bo'lib xizmat qiladi va ularni haqiqat yo'liga boshlaydi(5). Shu bois Ibn Xaldun tarixiy voqealarning o'zaro bog'liqligi va ichki qonuniyatlariga urg'u berib, tarixni shunchaki xronologik hodisalar yig'indisi emas, balki sabab-oqibat aloqalari bilan izchil ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilib o'tadi.

Mazkur asarning birinchi kitobi ana shu maqsadga bag'ishlangan. Chunki u o'ziga xos obyektga — inson sivilizatsiyasi va ijtimoiy tashkilotga ega bo'lgan mustaqil fan sifatida qaralishi mumkin(6). Ibn Xaldun shu bilan tarixshunoslikni mustaqil ilmiy sohaga aylantirdi. Uning nazariy qarashlari keyinchalik Yevropa tarix falsafasida, xususan Viko, Monteskye va Hegel konsepsiyalarida ham o'z aksini topganini kuzatish mumkin.

Shuningdek, uning o'ziga xos masalalari ham mavjud bo'lib, ular sivilizatsiya mohiyatiga bog'lanadigan turli shart-sharoitlarni izohlab o'tadi. Shunday qilib, bu fan o'z tuzilishi jihatidan boshqa barcha fanlarga o'xshashdir — xoh ular an'anaviy bo'lsin, xoh aqliy-intellektual bo'lsin(7). Ibn Xaldun shu o'rinda fanlarning umumiy strukturasi haqida ham fikr yuritadi va “umron”ni boshqa fanlardan ajratib turadigan jihat – uning jamiyatning ichki qonuniyatlariga tayanishi ekanini ta'kidlaydi. Arab dunyosi iqtisodiy tarixchisi Charles P. Issavi esa o'zining Ibn Xaldunning “Muqaddima”sidan tanlangan parchalar asarida mutafakkirning “umron” ilmi



haqidagi qarashlari quydagicha izohlaydi: “Ma’lum bo’lishi lozimki, mazkur mavzu muhokamasi mutlaqo yangicha, g’ayrioddiy va nihoyatda foydalidir. Unga chuqur ilmiy tadqiqot yo’l ochdi. Bu masala na ritorikaga, ya’ni Aristotelning “Organon”ida bayon qilingan mantiqiy fanlardan biriga kiradi, na siyosatga kiradi. Aslida, bu mutlaqo yangi ilmiy sohaga o’xshaydi. Bu jihat bilan Ibn Xaldun ilmiy tarixshunoslikning asoschisi sifatida qaraladi(8).

Shu bilan birga, ayrim olimlarning asarlarida bu masalaga yaqin ayrim fikrlarni ham uchratishimiz mumkin: payg’ambarlikning zarurligini isbotlashga doir dalillarda odamlarning bir-biri bilan hamkorlikda yashashlari va shu sababli ularni boshqaruvchi shaxsga ehtiyoj sezilishi haqida fikr yuritilgan(9). Demak, Ibn Xaldun g’oyalari mutlaqo havodan yaratilmagan, balki avvalgi an’analar bilan uzviy bog’langan holda yangicha metodologik darajaga ko’tarilgan.

Bundan tashqari, ayrim donishmandlarning nutqlarida ham mazkur masalaga oid fikrlarni uchratamiz. Masalan, al-Mas’udiyning “Boyqush haqidagi hikoya”sida Mobedon Bahrom ibn Bahrunga shunday degan(10). Xuddi shunday, Anushirvon ham hukmronlik, lashkar, moliya, soliqlar, dehqonchilik va adolat o’rtasidagi bog’liqlikni izohlagan(12). Aristotelga nisbat berilgan va keng tarqalgan “Siyosat kitobi”da ham mazkur masalaga oid ko’plab mulohazalar uchraydi¹². Ammo Ibn Xaldunning tahlillari bu jumalarni izohlaydigan mukammal, asoslangan va dalillangan sharhdir(13). U faqat siyosiy yoki falsafiy mulohazalar bilan cheklanib qolmay, ularni jamiyat hayoti qonuniyatlari bilan bog’lab, bir butun ilmiy konsepsiya darajasiga ko’tardi. Aytish joizki, Ibn Xaldun o’z asarini qat’iy ilmiy mantiq asosida qurib, ijtimoiy jarayonlarni bir-biriga bog’liq bo’lgan, izchil nazariy tizimda sharhlagan. Bu yondashuvi bilan nafaqat Sharq tafakkurida, balki umumbashariy ilmiy merosda ham o’ziga xos mavqeyni egalladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibn Xaldun. Al-Muqaddima. Bayrut: Dar al-Fikr, 2004. – B. 45–47.
2. Gellner, Ernest. Muslim Society. Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – P. 23–28.
3. Фомина Дарья Владимировна. Власть и государство в философии Ибн Хальдуна. Москва, 2003. – Стр. 16.
4. Al-Azmeh, Aziz. Ibn Khaldun: An Essay in Reinterpretation. Budapest: Central European University Press, 2003. – P. 64–70.
5. Ходжаев, Мансур. Ибн Халдуннинг ижтимоий-фалсафий карашлари. Тошкент: Фан, 1998. – Б. 112–118.
6. Mahdi, Muhsin. Ibn Khaldun's Philosophy of History: A Study in the Philosophic Foundation of the Science of Culture. London: Routledge, 2015. – P. 75–83.
7. Сайфиддинов, Ш. Ибн Халдун ва Шарқ фалсафаси тарихида унинг ўрни. Тошкент: Университет нашриёти, 2010. – Б. 56–61.
8. Issawi, Charles. An Arab Philosophy of History: Selections from the Prolegomena of Ibn Khaldun. London: John Murray, 1967. – P. 41–46.
9. Хусейн, М. Ибн Халдун: тарих ва фалсафа уйғунлиги. Қоҳира, 2001. – Б. 77–82.
10. Laroui, Abdallah. The History of the Maghrib: An Interpretive Essay. Princeton: Princeton University Press, 1977. – P. 91–95.
11. Baali, Fuad. Society, State and Urbanism: Ibn Khaldun's Sociological Thought. Albany: State University of New York Press, 1988. – P. 53–59.
12. Бобоев, А. Шарқ ижтимоий тафаккури ва Ибн Халдун. Самарқанд: СамДУ, 2007. – Б. 134–139.
13. Rosenthal, Franz. The Muqaddimah: An Introduction to History. Vol. 1–3. Princeton: Princeton University Press, 1967. – P. 22–30.